



## **Bolalarning intellektual va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlashda STEAM ta'lim texnologiyasining o'rni**

**Azizova Ziroat Baxodirovna-**

Qoqon davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası

p.f.b.f.d.(PhD) o'qituvchisi

**Aliyeva Mahmuda, Xasanova Diyora**

Qoqon davlat universiteti talabalari

**Anotatsiya.** Ushbu maqolada **STEAM- texnologiyasini qo'llash.** bolaning kelgusida o'z muvaffaqiyatini namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularning qiziqishini uyg'otish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** STEAM, badiiy-estetik, ijtimoiy-emotsional, o'qitish, yondashuv, fan va texnologiyalar, qurish- yasash, muhandislik, tasviriy san'at.

**Аннотация.** В данной статье используется технология STEAM. Предоставляется информация о развитии социальных и эмоциональных навыков, воспитании подрастающего поколения и пробуждении у него интереса как основы будущего успеха ребенка.

**Ключевые слова:** STEAM, художественно-эстетический, социально-эмоциональный, преподавание, подход, наука и техника, строительство, инженерия, изобразительное искусство.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevni ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor bilan qarash zarurligini davlat siyosati darajasigacha olib chiqqanliklari va bu borada *"Maktabgacha ta'lim tizimi — yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy va intellektual tayyorgarligining birinchi bosqichi."*, deya ta'kidlaganlari yoshlar tarbiyasida pedagoglarning faoliyatini nechog'liq muhimligi va bunda alohida ma'suliyat bilan faoliyatga yondashish zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda talim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, etibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ananaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchi asosiy figuraga

aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini taminlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy-estetik va musiqiy tarbiya berish hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM - o‘qitish asoslarini joriy etish, bolaning kelgusida o‘z muvaffaqiyatini namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘z kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ularning qiziqishini uyg‘otishdan iborat. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ma’naviy yetukligi uchun yosh avlodni tarbiyalashning samarali tashkiliy va pedagogik shakllarini va usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida STEAM - faqat o‘qitish usullari emas balki bolalarni aqlini charxlash hamda intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ham katta yordam beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar STEAM - o‘qitish orqali bilim olish bilan birgalikda undan qanday foydalanish haqidagi ma’lumotlarga ham ega bo‘ladilar. STEAM - o‘qitish orqali ta’limga yondashuv, fan va texnologiyalarni, qurish- yasash va matematikani chuqur o‘rganib boradilar. STEAM - o‘yinlari orqali bolalarning bilimlari mustaxkamlanib borishiga erishiladi.

Mazkur yo‘nalishdagi islohotlar davomida ta’limga yangicha yondashuv bilan boqish kerakligini, bunda STEAM ta’limning ahamiyatli tomonlari katta ekanligi qator soha mutaxasislari tomonidan ta’kidlanib kelinmoqda.

STEAM ta’lim texnologiyasi tarbiyalanuvchilarga yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi.

U bolalarni bir vaqtning o‘zida beshta:

- fan (Science),
- texnologiya (Technology),
- muhandislik, (Engineering),
- tasviriy san’at (Art),
- matematika (Math) bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan.

STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. Mazkur ta’lim amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash tushuniladi.

STEAM yondashuviga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o‘quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o‘quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga urg‘u berishdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’limda moddiy ba’za, [standart](#), o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi o‘qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi. Har qanday ta’lim bola shaxsiga, uning qiziqish, xohish istagiga, ehtiyojiga qaratilmog‘i kerak. Ya’ni, ta’limni individuallashtirishga qaratilmog‘i talab etiladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda esa STEAM ta’lim dasturiga asoslangan ta’limni tashkil etish amalda belgilangan vazifalarga erishishimizda ulkan zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- a. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 bet
4. Azizova Ziroat “The content of children's preparation for school in preschool educational organizations”. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj) 78-80 b 2024
5. A.Z .Baxodirovna “[Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati](#)”, Science and innovation 3 (special issue 31), 34-37 2024y
6. AZ Baxodirovna “[Sharq matematik olimlarining asarlarida arifmetikaning rivojlanishi](#)”, Science and innovation 3 (special issue 31), 455-460b 2024y
7. P.F.Миннуллина, А.Р Нуриева, З.Б.Азизова “[Подготовка будущих воспитателей в полилингвальном образовательном пространстве](#)” Science and innovation 3 (special issue 31), 88-91 2024y
8. A.Z Baxodirovna”[Ta’limiga tayyorlashga ta’sir etuvchi omillar](#)”, Science and innovation 3 (special issue 31), 187-193
9. AZ Baxodirovna, RF Muxammadjonovna, KSH Baxtiyarovna, ...International Journal of Early Childhood Special Education 14 PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PRESCHOOL EDUCATION IN UZBEKISTAN: PROBLEMS AND SOLUTIONS. 2022